

## RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHIIYATI

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10645064>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sohalarda va elektron tijorat rivojlanishida mamlakatning iqtisodiy salohiyati o'rganib chiqilgan va bu borada muallif tomonidan tegishli xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, logistika, erkin iqtisodiy zona.

## THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT

**Abstract.** In this article, the economic potential of the country in the fields of digital economy and e-commerce development has been studied, and the author has given relevant conclusions and suggestions in this regard.

**Keywords:** digital economy, e-commerce, logistics, free economic zone.

## ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СТРАНЫ В СФЕРЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

**Аннотация.** В данной статье исследован экономический потенциал страны в сфере цифровой экономики и развития электронной коммерции, а также сделаны соответствующие выводы и предложения автором по этому поводу.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, электронная коммерция, логистика, свободная экономическая зона.

Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi.

Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliği yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz.

Jahonda elektron tijorat tizimlari orqali onlayn-savdo bozori tobora rivojlanib bormoqda.

Elektron tijoratning supergigantlari hisoblangan Amazon (AQSh), Alibaba va JD.com (ikkisi ham Xitoy) kabi kompaniyalar hozirda xalqaro onlayn savdoning 40 foizini nazorat qilib, jahondagi eng yirik 10 ta elektron tijorat bozorlaridan yettitasini boshqarmoqda va global logistika tarmog'ida tovarlar harakatining yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Elektron tijorat bozorining mahsuli — chegarabilmas turli posilkalar va mayda paketlar almashinuvining kundan-kun o'sib borishi turli mamlakatlar pochta va bojxona xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni har qachongidan ham mukammal qilishni talab qilmoqda. Bojxona tartibi

va tartibga solish mexanizmlari elektron tijoratning jadal o'sishiga mos kelmay qolmoqda. Yangi bozor global logistika tarmog'ining uzluksiz, muvofiqlashtirilgan va ishonchli ishlashini ta'minlash masalasida Jahon pochta ittifoqi (JPI)ning Xalqaro bojxona va transport idoralari — Jahon bojxona tashkiloti (JBT), Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA), Xalqaro fuqaro aviatsiyasi assotsiatsiyasi (IKAO) bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishni talab qilmoqda.

JBT—JPIning pochta jo'natmalarini bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha qo'shma qo'llanmasiga binoan, bojxona ma'muriyati tayinlangan operator bilan hamkorlikda bojxona orqali o'tadigan pochta jo'natmalarini chiqarish tartib-qoidalarini soddalashtirish, amalda standartlar/protseduralarni muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirilishida amaliy yordam berishi kerak. Masalan, Bojxona hamkorlik kengashi qiymati 30 SPZ (41 AQSh dollari)dan oshmaydigan sovg'alarni Bojsiz qabul qilish bo'yicha tavsiya etilgan tovarlar ro'yxatiga kiritgan. Bundan tashqari, ushbu tavsiyaviy ro'yxatda qaysi tovarlar sovg'alar toifasiga kirishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan.

Biroq ushbu yo'nalishda ham tartibga solinmagan import faoliyatini kamaytirish uchun cheklov choralari qo'llaniladi. Quyidagi jadvalda turli mamlakatlarda pochta orqali tovarlarni bojsiz olib kirish me'yorlari keltirilgan.

1. Xorijiy davlatlarda Internet-savdo — pochta jo'natmalari orqali tovarlarni bojsiz olib kirish me'yori

Мамлакат/Худуд	Почтадаги товарларнинг қиймати, улар солиқ ва бож тўловларидан озод қилинган	Почта жўнатмасидаги товарнинг қиймати, олиб кириладиганида ҚҚС тўланади, ammo боjxona тўлови тўланмайди	Почта жўнатмасидаги товарнинг қиймати, бунда солиқ ва бож тўловларини тўлайди
Европа Иттифоқи	22 Евродан кам	22 дан 150 еврогача	150 Евродан ортиқ
Буюк Британия	15 фунтдан кам	15 дан 135 фунтгача	135 фунтдан ортиқ
Швейцария		65 франкдан кам Китоб учун 200 франкдан кам	65 франкдан ортиқ Китоб учун 200 франкдан ортиқ
Евроосиё иқтисодий иттифоқи	200 Евродан кам		200 Евродан ортиқ
Украина	100 Евродан кам		100 Евродан ортиқ
Жанубий Корея	150 доллардан кам		150 доллардан ортиқ
Хитой	500 юандан кам		500 юандан ортиқ
Канада	20 канада долларидан кам		20 канада долларидан ортиқ
Ўзбекистон	100 доллардан кам (почта жўнатмалари) 1000 доллардан кам (чорақда бир маротаба)		100 доллардан ортиқ (почта жўнатмаси) 1000 доллардан ортиқ (чорақда бир маротаба)

Izoh: Bazi bir davlatlarning qonunchiligida jismoniy shaxsdan jismoniy shaxsga yuboriladigan shaxsiy sovg'alar uchun bojsiz olib kirish me'yorlari turlicha o'rnatilgan.

Yevroosiyo Iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlarida 2020-yil 1-yanvardan boshlab internet-savdo doirasida jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirish chegarasi 500 yevrodan 200 yevrogacha pasaytirildi. Aprelda Rossiya Moliya vazirligi 2020-yil 1-iyuldan bojsiz olib kirish chegarasini 100 yevrogacha, 2021-yildan 50 yevrogacha, 2022-yil boshidan 20 yevrogacha tushirishni taklif qildi. Shu bilan birga, agar tovarning qiymati yoki vazn chegarasi hozirgi bir kilogramm uchun 2 yevrodan 3 yevroga oshsa, soliqning minimal stavkasini oshirishni taklif etgan.

Biroq Yevroosiyo Iqtisodiy komissiyasi hozirgi vaqtda YeOII mamlakatlari uchun onlayn-xaridlarni amalga oshirishda bojsiz olib kirish me'yorini tushirishni maqbul deb hisoblamaydi.

Yevroosiyo Iqtisodiy komissiyasi may oyida, pandemiya avjiga chiqqan paytda bu mavzu muhokamasini to'xtatdi. Bungacha Rossiya tomoni 2021-yilning o'rtalariga qadar cheklovni 200 yevrodan 100 yevroga tushirish muddatini kechiktirish taklifini ilgari surgan edi.

O'zbekiston fuqarolari — jismoniy shaxslar ham shaxsiy foydalanishlari uchun chet eldan tovarlarga buyurtmalar berishlari mumkin. Internet va mobil ilovalarning rivojlanishi bu imkoniyatlarni osonlashtiradi (so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 23,9 million, foydalanuvdagi smartfonlarning soni esa 19 milliondan ortiq).

Prezidentning 2018-yil 6-fevraldagi "Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan jismoniy shaxslar tomonidan respublikaga bojxona to'lovlari olinmaydigan tovarlarni olib kirishning chegaralangan me'yorlari belgilangan bo'lib, bular quyidagicha:

- xalqaro kuryerlik jo'natmalari orqali jismoniy shaxslar nomiga kelayotgan tovarlar uchun — bir kalendar chorak mobaynida 1 000 (bir ming) AQSh dollari;
- xalqaro pochta jo'natmalari orqali jismoniy shaxslar nomiga kelayotgan tovarlar uchun — 100 (yuz) AQSh dollari.

Prezidentning 2019-yil 7-noyabrdagi "Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun tovarlarni olib o'tish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan 2020-yil 1-yanvardan boshlab, notijorat maqsadlar uchun O'zbekiston chegarasidan o'tish punktlari orqali qo'l yukida va kuzatib borilayotgan bagajida tovarlar olib kirayotgan jismoniy shaxslar uchun, shuningdek, jismoniy shaxs nomiga xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalari orqali keladigan tovarlarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i o'rniga yagona bojxona to'lovini to'lashni nazarda tutuvchi bojxona to'lovlari undirishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan.

Shuningdek, bojxona qiymatining 30 foizi miqdorida yagona bojxona to'lovi belgilangan, lekin har bir kilogramm yuk uchun 3 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda yagona bojxona to'lovi stavkasi belgilandi, bu jismoniy shaxs tomonidan olib kirishning maksimal me'yorlari oshib ketganda undiriladi.

Xo'sh, bu kabi boj va soliq o'zgartirishlari elektron tijoratning rivojlanishiga qay darajada ta'sir qiladi, degan savol kelib chiqadi. Albatta, bu kabi o'zgarishlar O'zbekistonda elektron

tijoratning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi, aksincha uning mamlakatda yanada rivojlanishiga xizmat qilishi lozim.

Jahon miqyosidagi pandemiya sharoitida aksariyat xalqaro aviareyslarning to‘xtatilishi, yuklarni yetkazib berishning keskin susayib ketishi oqibatida xalqaro pochta va yetkazib berish tizimlarini yanada takomillashtirish, bunda elektron tijorat tizimini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatib qo‘ydi.

O‘zbekistonda elektron tijorat tizimini rivojlantirish sharoitida hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ulardan biri — bu xorijiy internet-do‘konlaridan tovarlarni yetkazib berish vaqtini qisqartirishga erishish zaruriyatidir. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, bu masalaning yechimlaridan biri sifatida maxsus bojxona omborxonalarini yaratish va ular faoliyatini to‘liq avtomatlashtirilgan holda nazorat qilishga erishish ekanligini ta’kidlash joiz.

Masalan, Tatariston rahbari 2020-yil iyul oyida Rossiya Moliya vazirligiga Tataristonning transchegaraviy internet savdosi uchun mamlakatning birinchi B2B2C, ya’ni “biznes biznes uchun — biznes mijoz uchun” maxsus “bond zonasi” (bojxona to‘lovlari to‘lanmagan tovarlar ombori yoki omborlari zonasi)ni tashkil etish taklifi bilan murojaat qilgan. Respublika rahbariyati buni sinov tariqasida transchegaraviy internet-savdoga yo‘naltirilgan alohida erkin iqtisodiy zonani yaratish orqali amalga oshirishni taklif qilgan.

Bond zonani yaratish bo‘yicha Tataristonning shartlari orasida logistika infratuzilmasini yuqori darajada tayyorlash, maqbul jug‘rofiy joylashuv va respublika organlarining qo‘llab-quvvatlashi ham mavjud. Rossiyadagi birinchi bunday zonani yaratishga to‘sqinlik qiladigan jihat — bu tartibga soluvchi normativlarning yo‘qligidir. Amaldagi bojxona qoidalari bojxona ombori modelidan foydalanganda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi hududidagi jismoniy shaxslarga pochta orqali tovarlarni jo‘natishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llashga imkon bermaydi.

Hozirgi kunda Xitoy va Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasida ayrim umumiy chegara hududlarida erkin savdo va bojxona bond omborlari mavjud bo‘lib, ular faoliyatini ham tanqidiy o‘rganib chiqish lozim.

O‘zbekiston Turkmaniston, Tojikiston va, kelajakda, Afg‘oniston bozorlariga yo‘naltirilgan bond zonalarini yaratish mumkin. Bu esa, O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan transchegaraviy savdosining yanada rivojlanishiga, yaratilajak “bond zonalarini” elektron tijorat orqali jo‘natilayotgan tovarlarning yetkazib berilishining tezlashishiga va mijozlar uchun qulayliklarning yanada ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning ham elektron tijorat yo‘li bilan boshqa davlatlarga jo‘natish mexanizmlarini ham ishlab chiqish lozim. Albatta, bu masalalarni mutaxassislar ishtirokida sinchkovlik bilan o‘rganib chiqish va, lozim bo‘lganda, mavjud normativ hujjatlarga tuzatishlar kiritish orqali amalga oshirish zarur.

Rivojlangan davlatlar tomonidan elektron tijoratga katta e’tibor qaratilayotgani, bunday savdolar hajmi hozirgi kunda 6,5 trillion dollargacha o‘sgani O‘zbekistonda ham ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda tayyorlangan iste’mol mollari va tovarlarini elektron tijorat tizimi orqali boshqa mamlakatlarga tez, oson va qulay sotish juda katta yutuqlarga erishishga, mamlakat iqtisodiyotining o‘shishiga sabab bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyotda mutaxassislar tayyorlash, aholi va tadbirkorlarni elektron tijoratdan keng foydalanish bo‘yicha o‘qitish, sohani rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimlarni ishlab chiqish zarur. Jahon

savdo aylanmasi yaqin kelajakda tez, qulay va arzon elektron tijorat tizimiga to'liq o'tishga hozirlik ko'rmoqda. Uni o'ziga to'liq moslashtirgan, uning qulaylik va afzalliklaridan foydalangan mamlakatlar katta yutuqlarga ega bo'lishi, juda ko'p aholini ish bilan ta'minlashi mumkin.

#### REFERENCES

1. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 111–115.
2. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
3. Mukhammedrizaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 90.
4. Raxmonqulova, N. (2023). THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 192-194.
5. Khudoynazarovich, S. A. (2021). An Opportunity of Internet Marketing in Tourism Sphere. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 356-361.
6. Шадиев, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 31-32.
7. Bazarova, M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 563–567.
8. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.
9. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
10. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746–750.
11. Jumayeva, Z. (2024). ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 511-516.
12. Bustonovna, J. Z. (2023). INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL AND PECULIARITIES OF THIS PROCESS IN UZBEKISTAN. *International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers*, 11(8), 36-44.
13. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 326-332.
14. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712–717.

15. Sodikova, N. (2024). OTMda “Iqtisodoyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari” fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
16. To'rayevna, S. N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.
17. Hakimovich, T. M. (2023). BOSHQARUVCHILARNING SAMARADORLIKKA ERISHISHDAGI PROFESSIONALLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 421-425.
18. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 415-420.
19. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1), 557–562.
20. Jumaeva, Z. (2021). Modern trends in the economic development of the regions of Uzbekistan. *InterConf*.
21. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
22. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889-893.
23. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
24. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 504-507.
25. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.